

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 5



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
5-son
oktabr, 2025

October 2025
Volume 3
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy
O'zbekiston elektron jurnali ta'lim, fan va
innovatsiyalar Respublikasi Oliy vazirligi
huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi**
rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli
qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal
Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika
universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya
universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi
Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет

Московский энергетический институт Войнаш Сергей Александрович

Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве
РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве
РФ

Садриддинов Манучехр Исмоиддинович Международный университет
туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований

международных экономических отношений, Финансовый университет при
Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета.

Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и
бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета

Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита

Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории

Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового

администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа

Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт

проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями,

Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich - t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich - i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva GulruxJo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

October 2025

Volume 3

Number 5

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ojs.qmii.uz

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida investitsion operatsiyalarni amalga oshirishni takomillashtirish

Iuldasheva Barno Kuchkarovna, Axmedova Firuza Abdumadjitovna

Осуществление инвестиционных операций торговых банках в условия цифровой экономики

Иулдашева Барно Кучкаровна, Ахмедова Фируза Абдумаджитовна

Improving investment operations in commercial banks under the conditions of digital economy

Iuldasheva Barno Kuchkarovna, Axmedova Firuza Abdumadjitovna

Received: September 7, 2025 Revised: September 10, 2025

■ Accepted: September 13, 2025 ■ Published Online: October 1, 2025

- **Annotatsiya:** maqolada mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotgan investitsion operatsiyalari, investitsion operatsiyalarning asosiy maqsadlari va bu operatsiyalarni amalga oshirishda mavjud muammolar hamda ushbu muammolarni echishda maqbul chora-tadbirlarni tanlash, shuningdek operatsiyalarni amalga oshirishni takomillashtirishga xulosa va takliflar keltirilgan.
- **Аннотация:** в статье представлены инвестиционные операции коммерческих банков в условиях цифровой экономики нашей страны, основные цели инвестиционных операций, а также существующие проблемы в осуществлении этих операций и выбор оптимальных мер по решению этих проблем. Кроме того, даны выводы и предложения по совершенствованию осуществления операций.
- **Abstract:** the article presents the investment operations of commercial banks in our country's digital economy, outlining the main objectives of these operations, as well as the existing challenges in their implementation. It also discusses the selection of optimal measures to address these problems and provides conclusions and proposals for improving the execution of these operations.
- **Kalit so'zlar:** Investitsiya, bank resurslari, raqamli transformatsiya, diversifikatsiya, likvidlilik, tranzaktsion depozitlar, Big Data, Blokcheyn va tokenlash, raqamli platformalar.
- **Ключевые слова:** Инвестиция, банковские ресурсы, цифровая трансформация, диверсификация, ликвидность, транзакционные депозиты, Big Date, Blokcheyn и токенизация, цифровые платформы.
- **Keywords:** Investment, banking resources, digital transformation, diversification, liquidity, transaction deposits, Big Date, Blokcheyn and tokenization, digital platforms.

KIRISH

Bugungi kunda, globallashuv va axborot texnologiyalari rivoji bilan iqtisodiyotning barcha sohaları, xususan, moliya tizimi tubdan o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot dunyo bo'ylab iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishiga aylanib, tijorat banklarining faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, investitsion operatsiyalarni amalga oshirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish banklar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Tijorat banklari nafaqat an'anaviy moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishda, balki raqamli platformalar orqali samarali investitsion faoliyat yuritishda ham raqobatbardosh bo'lishga intilmoqda. Shunday sharoitda investitsion operatsiyalarni takomillashtirish, ularning xavfsizligi, tezligi va samaradorligini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan olib borilayotgan raqamli transformatsiya siyosati bank-moliya tizimini yanada isloh qilish, investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu sharoitda tijorat banklarining investitsion operatsiyalarni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish va zamonaviy raqamli vositalar yordamida takomillashtirish zarurati tobora ortib bormoqda. Davlatimiz Prezidenti ta'kidlagandek, "Investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mublag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarda, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi". Shunday ekan, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimiz bank-moliya salohiyatini to'la namoyon etish uchun bir qator choralar ko'rish zarurdir.

Oxirgi yillarda bank va moliya tizimida jadal davom ettirilayotgan jadal islohotlar avvalo sohaga zamonaviy bozor mexanizmlarini keng joriy etishda namoyon bo'lyapti. O'z navbatida uzoq yillar davomida banklar kapitalining asosiy qismi davlatga tegishli bo'lib kelgandi. Bu esa bank sektorida sog'lom raqobatga to'siq bo'lib kelar, xizmat ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan edi. So'nggi yillarda banklar faoliyati, ayniqsa, ularning investitsion jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan muhim institutsional o'zgarishlar amalga oshirilyapti. Tijorat banklar investor sifatida bevosita va bilvosita daromad olish maqsadida o'z resurslarini muayyan muddatga real aktivlarni tashkil etish yoki sotib olishga, moliyaviy aktivlarni xarid qilishga yo'naltiradi. O'z navbatida banklarning investitsion faoliyati ularning moliyaviy vositachilik roli orqali ham yuzaga chiqadi. Bu makroiqtisodiy jihatga ham ega. Aynan shu prizma

orqali qarasak, tijorat banklari bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik subyektlarining pul-kredit shaklida yuzaga keluvchi investitsion talablarini amalga oshirishini rag'batlantiradi, jamg'armalarining investitsiyaga transformatsiyalashuvini ta'minlaydi.

Mazkur ishda raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida investitsion operatsiyalarni amalga oshirish holati tahlil qilinadi, mavjud muammolar aniqlanadi va ularni hal etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyatni amalga oshirish boshqa investorlar faoliyatidan bir muncha farq qiladi. Tijorat banklar investitsiyalarni boshqa investorlardan farqli o'laroq jalb qilingan mablag'lar evaziga amalga oshiradilar. Shunday ekan, bank bir tomondan investor sifatida bozorda ishtirok etsa, boshqa tomondan esa u qarzdor hisoblanadi. Shuning uchun ham banklar ushuni investitsiyalarni amalga oshirishda likvidlilik masalasi muhim hisoblanadi. Ya'ni ular aktivlar va passivlarining muddati, hajmi va foiz stavkalari bo'yicha mutanosib boshqarishni taqozo etadi.

Tijorat banklari aholi va korxonalarining vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini depozit hisobraqamlariga jalb qilish va ularni kreditlar, investitsiyalar shaklida joylashtirish bilan shug'ullanuvchi tijorat tashkilotlari hisoblansada, jalb qilingan mablag'larning barcha turini ham investitsion faoliyatni amalga oshirishda foydalanish no'to'g'ridir. Chunki banklararo kreditlar nisbatan qimmat moliyaviy resurs hisoblanadi, shu sababli undan investitsiya faoliyatini amalga oshirishda foydalanish tijorat banklari foizli xarajatlari miqdorining oshishiga olib keladi.

Bundan tashqari, tijorat banklari tranzaksion depozitlardan to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni muddatli deposit shartnomasini tuzmasdanturib foydalanishga haqli emas. Tijorat banklarning tranzaksion depozitlardan resurs sifatida to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni muddatli deposit shartnomasini tuzmasdan turib foydalanishi ularning deposit bazasi mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada bank likvidlili riskining kuchayishiga olib keladi. Chunki, tranzaksion depozitlar mijoz tomonidan istalgan vaqtda talab qilib olinishi mumkin. Jahon Tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining fikricha, tranzaksion depozitlarning jami depozitlar hajmidagi ulushi 30 foizdan oshmasligi lozim. Aks holda muddatli mablag'lar yetishmaydi va bu tijorat banklarining kreditlash salohiyatini oshirishni chegaralaydi.

Sunday ekan, banklar tomonidan muddatli va jamg'arma depozitlar salmog'ini jami depozitlar salmog'iga nisbatan oshirish zarur hisoblanadi. Buning uchun esa, banklar

tomonidan mijozlarga qulay muddatlarda va yuqoriroq foiz stavkalarda depozit turlarini taklif qilishlari lozim. Shuningdek, valyuta depozitlar turlarini ko'paytirish, mijozlar bazasini segmentatsiya qilish va har bir guruhga moslashtirilgan deposit taklif qilish zarurdir.

Tijorat banklarining investitsion faoliyati quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- Qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritish (depozit sertifikatlar, obligatsiyalar, aksiyalar);
- Moliyaviy instrumentlar orqali daromad olish (derivativlar, REPO bitimlar, forex operatsiyalari);
- Loyihalarni moliyalashtirish (korporativ kreditlash, infratuzilma loyihalari);
- Startaplar va innovatsion korxonalarga investitsiya kiritish.

Mazkur operatsiyalar banklar uchun nafaqat foyda manbai, balki iqtisodiyotni barqarorlashtirishga xizmat qiluvchi vosita hamdir.

Ushbu faoliyatni raqamlashtirish hoziri raqamli iqtisodiyot sharoitida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tijorat banklari — bu raqamli iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikni amalga oshiruvchi, investitsiyalarni yo'naltiruvchi va yangi texnologiyalarni joriy qiluvchi asosiy institutlardan biridir.

Raqamli iqtisodiyot nafaqat ishlab chiqarish, balki moliyaviy sohani ham tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa, bank tizimi bu o'zgarishlarning markazida turibdi.

Banklarning investitsion faoliyatini raqamlashtirish – bu investitsiya jarayonlarini raqamli texnologiyalar orqali avtomatlashtirish, optimallashtirish va samaradorligini oshirish jarayonidir. Bu jarayon banklarga tezkor qarorlar qabul qilish, xavflarni kamaytirish, mijozlar uchun qulayliklar yaratish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Banklar uchun investitsion raqamlashtirishning afzalliklari, birinchidan ma'lumotlar asosida investitsion loyihalarni baholash va qaror qabul qilish mumkin.

Ikkinchidan, raqamli tizimlar kredit va sarmoya xavfini avtomatik aniqlash imkonini beradi.

Uchinchidan, qo'lda bajariladigan jarayonlarni avtomatlashtirish orqali tejamkorlikka erishish mumkin.

To'rtinchidan, mobil ilova va veb-interfeyslar investitsiyalarni boshqarish imkoniyati yaratadi.

Beshinchidan, blockchain asosida har bir investitsion harakatni kuzatish imkonini yuzaga keladi.

Respublikamiz banklari, xususan O'zmilliybank, Ipoteka bank, va Xalq banki kabi yirik banklar asta-sekin raqamli investitsion xizmatlarni joriy qilmoqda. Shuningdek, Toshkent fond birjasi orqali raqamli qimmatli qog'ozlar savdosi yo'lga qo'yilgan.

Yuqotidagilardan tashqari, raqamli texnologiyalar investitsion faoliyatga quyidagi asosiy yo'nalishlarda ta'sir

ko'rsatmoqda:

- Ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlarining kengayishi: Big Data yordamida banklar investitsion risklarni aniq baholay olishmoqda.

- Blokcheyn va tokenlash: Aktivlarni raqamlashtirish (tokenlash) orqali likvidlik oshmoqda, bu esa banklar uchun yangi investitsiya imkoniyatlarini yaratadi.

- Sun'iy intellekt: Investitsion qarorlarni qabul qilishda avtomatlashtirilgan tizimlar ishlatilmoqda.

- Raqamli platformalar: Fintech ekotizimlar orqali investitsion mahsulotlar tez va qulay taqdim etilmoqda.

O'zbekiston tajribasida mavjud muammolar
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida bank sektorida keng ko'lamli raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, quyidagi muammolar ham mavjud:

Birinchidan, texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani. Ko'plab tijorat banklarida zamonaviy raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, Big Data, blokcheyn kabi tizimlar hali to'liq joriy etilmagan. exnik jihatdan eskirgan infratuzilma banklarning investitsion qarorlarni tezkor qabul qilish va real vaqt rejimida ma'lumot tahlil qilish qobiliyatini cheklaydi.

Ikkinchidan, kiberxavfsizlik va ma'lumotlar himoyasi muammolari. Investitsion faoliyatda mijozlar va bank ma'lumotlarining himoyasi nihoyatda muhimdir. Kiberhujumlar xavfi banklar raqamli platformalar orqali investitsiyalarni amalga oshirishda asosiy xavf omilidir.

Uchinchidan, kadrlar salohiyatining yetishmasligi. Raqamli iqtisodiyot talablariga mos ravishda raqamli savodxonlik, texnologiyalarni tushunadigan mutaxassislar yetishmaydi. Bu esa zamonaviy investitsion strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

To'rtinchidan, investitsion risklarni baholashdagi murakkabliklar. Raqamli iqtisodiyotda an'anaviy iqtisodiyotga qaraganda ko'proq va murakkab. Bu esa investitsion loyihalarning risk menejment tizimlarini kuchaytirishni talab qiladi.

Beshinchidan, mijozlar bilan ishlashdagi cheklovlar. Aholining raqamli savodxonlik darajasi past bo'lishi investitsion xizmatlarga talabni cheklaydi hamda mijozlar raqamli muhitda investitsiya qilish xavflarini to'g'ri baholay olmaydi. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi asosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarur hisoblanadi. Buning uchun esa bank tizimlarida zamonaviy information texnologiya infratuzilmani joriy etish va modernizatsiya qilishi hamda banklar raqamli integratsiya tizimlarini yo'lga qo'yishlari zarur bo'ladi. Bu esa investitsiya qarorlarini tez va aniq qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, ma'lumotlarni shifrlash va himoya qilish texnologiyalarini qo'llash hamda foydalanuvchilarni xavfsiz investitsiya amaliyotlariga o'rganish bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish lozim.

Mavjud muammolarni echishda bank xodimlari uchun raqamli moliya va investitsiya tahlili sohalarida qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish ham muhim hisoblanadi.

Moliyaviy risklarni boshqarish va tahlil qilish ham mavjud muammolarni echishda muhim hisoblanadi. Buning

uchun esa, moliyaviy model va algoritmlar asosida investitsiyalarning xavfsizlik darajasini baholash tizimini hamda diversifikatsiya va portfelni avtomatik boshqarish tizimlarini joriy etish zarurdir.


TAHLIL VA NATIJALAR

Quyidagi jadvalda tijorat banklaridagi depozitlar qoldig'ini o'rganib tahlil qilamiz:

1-jadval.

Banklaridagi depozitlar qoldig'ini o'rganish tahlili

Yillar	Jami	shu jumladan		
		talab qilib olinguncha	Jamg'arma	muddatli
1	2	3	4	5
1/1/2023	216737,5	100683,3	23,289,8	92764,5
1/1/2024	241686,6	88036	24051,2	129599,4
1/1/2025	308692,3	104887,5	29247,9	174556,8



1-rasm. Jismoniy shaxslar (ko'k chiziq) va yuridik shaxslar (jigar rangli chiziq) uchun muddatli depozitlarning foiz stavkalari

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda bank depozitlari qoldig'ning asosiy qismini muddatli depozitlar tashkil qilgan. Talab qilib olinguncha depozitlar jami depozitlarning, 2023 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 46,5 % ni, 2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 36,4 % ni va 2025 yil 1 yanvar holatiga ko'ra esa 34 % ni tashkil qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, yil sayin talab qilib olinguncha depozitlar hajmi jami depozitlar hajmiga nisbatan kamayib bormoqda. Demak, bu ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz tijorat banklarida jami jalb qilingan depozitlar ulushida talab qilib olinguncha depozitlari salmog'ning yil sayin kamayib borishi yaxshi natijadir.

Shuni ta'kidlash joizki, tijorat banklari tomonidan investitsion operatsiyalarini amalga oshirish uchun muddatli va jamg'arma depozitlar barqaror va uzoq muddatli resurs manbai hisoblanadi.

Quyidagi diagrammada milliy valyutada bank depozitlari bo'yicha foiz stavkalarini ko'rib chiqamiz.

Diagrammada 2023-yil dekabrdan 2024-yil dekabrgacha bo'lgan muddatda jismoniy shaxslar (ko'k chiziq) va yuridik shaxslar (jigar rangli chiziq) uchun muddatli depozitlarning foiz stavkalari dinamikasi aks ettirilgan. Diagramma ma'lumotlariga jismoniy shaxslarning depozitlari bo'yicha foiz stavkalari butun yil davomida yuqori darajada saqlanib qolgan. Ular 21,2% dan 22,1% gacha bo'lgan tor diapazonda tebrangan.

Jismoniy shaxslardan farqli o'laroq, yuridik shaxslar uchun depozit foiz stavkalari sezilarli darajada o'zgaruvcha bo'lgan. Butun davr davomida yuridik shaxslar uchun depozit foiz stavkalari doimiy ravishda va sezilarli darajada past bo'lgan. 2023 yil dekabr oyida 17,9% bo'lgan bo'lsa, 2024 yil 16,8% gacha pasayganini ko'rishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari investitsion faoliyatni amalga oshirishda tubdan yangi yondashuvlarga ehtiyoj sezmoqda. Chunki raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining investitsion operatsiyalarini takomillashtirish — zamon talabi. Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi, moliyaviy xizmatlarning raqamli platformalarga ko'chishi hamda mijozlarning raqamli xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji banklar oldiga yangicha vazifalarni qo'yadi. Raqamli texnologiyalarni faol joriy qilish, investitsion faoliyatni avtomatlashtirish, risklarni tahlil qilish tizimlarini kengaytirish orqali banklar nafaqat o'z raqobatbardoshligini oshiradi, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. O'zbekiston sharoitida bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat, bank sektori va ilmiy doiralar o'rtasida yaqin hamkorlik zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli infratuzilmaning

zaifligi, malakali kadrlar yetishmasligi, axborot xavfsizligiga tahdidlar, huquqiy bazaning sust rivojlanishi va raqamli savodxonlikning past darajada bo'lishi — investitsion faoliyatni samarali amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shunday bo'lsa-da, tijorat banklarining raqamli transformatsiya bo'yicha olib borayotgan sa'y-harakatlari, investitsion xizmatlarni avtomatlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga bo'lgan intilishi ijobiy natijalar berishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflarni berishimiz mumkin.

Bank infratuzilmasini modernizatsiya qilish, mutaxassislar salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini kuchaytirish hamda innovatsion hamkorliklarni yo'lga qo'yish zarurdir.

Deylik, raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklar investitsion faoliyatini amalga oshirishda mavjud muammolar hal qilindi. Shuni ham inobatga olish lozimki, mamlakatimizdagi faoliyat yuritayotgan tijorat banklarning ko'pchiligi investitsion faoliyatini amalga oshirish uchun etarli resursga ega emas. Demak, bank resurs bazasini kengaytirish va bank resurslari saqlanishini ta'minlash ham istiqbol maqsadlari qatoridan joy olishi lozim. Shundagina investitsion qo'yilmalarning likvidligi, xavfsizligi va daromadligi hamda o'sib borishi uchun pragmatik sharoit yaratiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Iuldasheva Barno Kuchkarovna, Toshkent Amaliy fanlar universiteti "Bank va moliya kafedrası" assistent o'qituvchisi / Иулдашева Барно Кучкаровна, Ассистент преподаватель кафедры "Банк и финансы" Ташкентского университета прикладных наук / Iuldasheva Barno Kuchkarovna, Assistant teacher of the Department of "Banking and Finance" at Tashkent University of Applied Sciences.

► iuldashevabarno79@gmail.com

■ ORCID: 0009-0006-3568-7668

2. Axmedova Firuza Abdumadjitovna, Toshkent Amaliy fanlar universiteti "Bank va moliya kafedrası" katta o'qituvchisi / Ахмедова Фируза Абдумаджитовна, Старший преподаватель кафедры "Банк и финансы" Ташкентского университета прикладных наук / Axmedova Firuza Abdumadjitovna, Senior Lecturer, Department of "Banking and Finance" at Tashkent University of Applied Sciences.

► Feruzaaxmedova007@gmail.com

■ ORCID: 0009-0005-2410-4159

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli

- O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079 sonli Farmoni. 2020 yil.
- [2]. Bank ishi; Darslik / Sh.Z. Abdullayeva, U.O'. Azizov; - T.: "Iqtisod- Moliya",2019.-540 b.
- [3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29- dekabrda Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojatnomasi.
- [4]. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Statistik byulleteni 2022-yil.
- [5]. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Statistik byulleteni 2023-yil.
- [6]. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Statistik byulleteni 2024-yil mart.
- [7]. Gulyamov S.S., va boshq. "Raqamli iqtisodiyotda blokchaey texnologiyalari".O'quv qo'llanma 21-22 betlar.TMI 2019 yil -447 bet;
- [8]. <https://cbu.uz/uz/about/>
- [9]. O'zbekiston banklarining kredit takliflari | Bank.uz